

Sirdaryo viloyatida kichik tadbirkorlik

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar – dekabr


E'tibor bering!

- 2019 yilning yanvar – dekabrida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 73,2 %ni tashkil etdi.
- 3153 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar tashkil qilindi.
- 2019 yilning yanvar – dekabrida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 17,9 birlikni taskil qildi.

2019 yilning yanvar – dekabrida 3153 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,3 martaga ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda (41,7 %), sanoatda (18,0 %), qurilishda (10,1 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (13,4 %), yashash va ovqatlanishda (8,2 %), tashish va saqlashda (2,0 %) tashkil etilgan.

2019 yil yanvar – dekabr oylarida yangi tashkil etilgan Kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi




**2019 yilning yanvar- dekabrida kichik tadbirkorlikning
asosiy ko'rsatkichlar**

	O'lchov birligi	2018 y.	2019 y.	(+/-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	8318	11026	2708
Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	1354	3153	1799
YaHM	%	76,5	73,2	-3,3
Sanoat	%	51,4	47,2	-4,2
Qishloq, o'rmonva baliqchilik xo'jaligi	%	99,1	99,6	0,5
Investitsiya	%	54,2	61,2	7,0
Qurilish	%	95,2	95,5	0,3
Savdo	%	95,8	95,0	-0,8
Xizmatlar	%	64,5	58,8	-5,7
Yuk tashish	%	95,3	95,9	0,6
Yuk aylanmasi	%	94,9	95,9	1,0
Yo'lovchi tashish	%	96,0	96,0	0,0
Yo'lovchi aylanmasi	%	97,9	98,0	0,1
Eksport	%	81,0	79,7	-1,3
Import	%	93,3	75,0	-18,3



2019 yilning yanvar – dekabrida kichik tadbirkorlikning tarmoqlar bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, %




Hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar

	Yanvar - dekabr 2018 - yil	Yanvar - dekabr 2019 - yil
Sirdaryo viloyati	1354	3153
Shirin shahar	30	74
Xovos tuman	67	212
Oqoltin tuman	88	230
Sardoba tuman	64	170
Yangiyer shahar	118	283
Sayxunobod tuman	125	250
Mirzaobod tuman	92	252
Guliston tuman	85	261
Boyovut tuman	113	269
Sirdaryo tuman	215	428
Guliston shahar	357	724

2019 - yilning yanvar- dekabrida yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'p Guliston shahrida - 724 ta, Sirdaryo tumanida - 428 ta, Yangiyer shahrida - 283 ta, Boyovut tumanida - 269 ta, Guliston tumanida - 261 ta, Mirzaobod tumanida - 252 ta, Sayxunobod tumanida - 250 ta. Sardoba, Oqoltin, Xovos tumanlarida bu ko'rsatkich o'rta darajada bo'lib, 230-170 tani tashkil etgan. Eng past ko'rsatkich Shirin shahrida - 74 tani tashkil etgan.



**2019 yil yanvar-dekabr holatiga yangi tashkil topgan
kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar
bo'yicha ulushi, %**



2019 - yil yanvar – dekabr holatiga hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Guliston shaharga - 25,5 %, Sirdaryo tumani - 16,1 %, Boyovut tumani - 8,0 %, Guliston tumani - 7,7 %, Mirzaobod tumani - 7,7 %, Sayxunobod tumani 6,6 %, Yangiyer shahar - 7,7 %, Sardoba tumani 6,4 %, Oqoltin tumani - 6,2 %, Xovos tumani - 6,1 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan
kichik korxona va mikrofirmalar

	yanvar – dekabr 2018 y.	yanvar – dekabr 2019y.
Jami	1354	3153
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	235	424
Sanoat	263	568
Qurilish	216	317
Savdo	347	1316
Tashish va saqlash	45	62
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	102	259
Axborot va aloqa	18	32
Sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	12	28
Boshqa turdag'i xizmatlar	116	147

Ma'lumotuchun: 2019–yilyanvar–dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar eng ko'p
savdoda – **1316 ta**, shuningdek:

sanoatda – 568 ta;

qurilishda – 317 ta;


qishloq, o'rmonvabaliqxo'jaligida – 424 ta;

Yashashvaovqatlanishbo'yichaxizmatlarda – 259 tani


Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar

2019 yil yanvar-dekabrida yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori o'sish Guliston shaharda -367 ta, Sirdaryo tumanida - 213 ta, Guliston tumanida - 176 ta, Yangiyer shahrida - 165 ta, Mirzaobod tumanida - 160 ta, Boyovut tumanida - 156 ta, Sayxunobod tumanida bu ko'rsatkich 125 tani tashkil etdi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda




Sirdaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik sub'yeqtalarining soni(har 1000 aholiga, birlikda), yanvar - dekabr holatiga*.



2019 yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik sub'ektalarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Guliston shahrida 37,7 birlikda, Yangiyer shahrida 19,4 birlikda, Sayxunobod tumanida 19,1 birlikda, Guliston tumanida 18,5 birlikda, Oqoltin tumanida 17,5 birlikda, Mirzaobod tumanida 17,3 birlikda, Sirdaryo tumanida 16,6 birlikda aniqlandi. Boyovut tumanida 11,5 birlikda ushbu ko'rsatkich past bo'lib qolmoqda.

* Kichik korxona, mikrofirmalar, fermer va dehqon xo'jaliklari


2019 yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni*
(har 1000 aholiga, birlikda)



* Kichik korxona, mikrofirmalar, fermer va dehqon xo'jaliklari

Quyida, 2019 yilning yanvar-dekabrida iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlik (biznes)ning sanoatdagi ulushi 47,2 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi - 99,6 %, qurilishda - 95,5 %, investitsiyada - 61,2%, savdoda - 95,0 %, eksportda - 79,7 %, importda -75,0 % va xizmatlar sohasidagi- 58,8 % ulushi aniq ko'rsatilgan.


2019 yilning yanvar–dekabrida iqtisodiy faoliyat turlarida kichik tadbirkorlikning ulushi




Kichik tadbirkorlikning YaHMdag iulushining pasayishi Dinamikasi yanvar–dekabr holatiga, %

2019 yilning yanvar – dekabrida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 73,2 %ni tashkil qildi. (2018 – yilning yanvar – dekabrida 76,5 %).

YaHM tarkibida pasayish yirik korxonalar ulushi oshishi bilan tushuntiriladi.



Kichik tadbirkorlikning ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)



**2019 yil yanvar–dekabrida kichik tadbirkorlikning hududlar kesimida
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (%)**

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Sirdaryo viloyati	47,2	95,5	58,8	61,2
Guliston shahar	78,9	97,1	32,5	49,7
Shirin shahar	0,9	98,2	93,2	20,4
Yangiyer shahar	53,4	97,0	97,7	55,0
Oqoltin tumani	43,6	89,6	91,8	55,4
Boyovut tumani	68,5	99,5	84,3	39,9
Sayxunobod tumani	71,1	93,6	53,8	80,4
Guliston tumani	66,4	100,0	95,9	79,9
Sardoba tumani	86,0	100,0	86,2	82,6
Mirzaobod tumani	100,0	92,3	94,0	83,3
Sirdaryo tumani	82,3	100,0	94,7	79,5
Xovos tumani	59,2	76,8	94,5	65,2

Hududlar bo'yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Mirzaobod tumani (100,0 %), Sardoba tumani (86,0 %), Sirdaryo tumani (82,3 %) tashkil etadi.

Qurilishda – Guliston tumani (100,0 %), Sardoba tumani (100,0 %), Sirdaryo tumani (100,0 %) va Boyovut (99,5 %) tumanlari tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida Yangiyer shahar (97,7 %), Guliston tumani (95,9 %), Sirdaryo tumani (94,7 %), Xovos tumani (94,5 %), Mirzaobod tumani (94,0 %) va Shirin (93,2 %) shahri tashkil etadi.


Investitsiyada - Mirzaobod (83,3 %), Sardoba (82,6 %) va Sayxunobod (80,4 %) tumanlari tashkil etadi.



Kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan 2019 - yilning yanvar - dekabrida


- 1 Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 3403,5 mlrd.so'mni (jami sanoat ishlab chiqarishning 47,2 %) yoki 2018 - yilning yanvar - dekabriga nisbatan o'sish sur'ati 110,2% ni tashkil qildi;
- 2 3752,7 mlrd. so'mlik investitsiyalar (umumiyligi hajmining 61,2 %) o'zlashtirildi va 2018 - yilning yanvar - dekabriga nisbatan o'sish sur'ati 219,5 %ni tashkil qildi;
- 3 1386,0 mlrd. so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiyligi hajmining 95,5 %) bajarildi va 2018 - yilning yanvar - dekabriga nisbatan o'sish sur'ati 120,0 %ni tashkil qildi;
- 4 1542,5 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatilib (viloyat jami xizmatlar hajmining 58,8 %), 2018 - yilning yanvar - dekabriga nisbatan o'sish sur'ati 107,9 %ni tashkil qildi;
- 5 chakana tovar aylanmasi umumiyligi hajmining 95,0 % yoki 2595,7 mlrd. so'mi (o'sish sur'ati 106,5 %ni tashkil qildi) shakllantirildi;
- 6 105,1 mln. AQSH dollarari (umumiyligi eksport hajmining 79,7 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2018 - yilning yanvar - dekabriga nisbatan 8,6 mln. AQSH dollariga yoki 8,9 %ga ko'p;
- 7 avtomobil transporti yuk aylanmasining 106,6 %ga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 95,9 %) ko'payishi ta'minlanadi;
- 8 yo'lovchi aylanmasining esa 102,1 %ga (umumiyligi yo'lovchi aylanmasining 98,0 %) ko'payishi ta'minlandi.

Kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar, xizmat)larning, jami eksport hajmidagi ulushi, %




2019 yil yanvar - dekabr holatiga hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar, xizmat)larning jami eksportdagi eng ko'p ulushi Shirin shaharda - 100,0 %, Guliston tumanida - 99,8 %, Yangiyer shaharda - 99,4 %, Sardoba tumanida - 99,3 %, Oqoltin tumanida - 98,7 %, Mirzaobod tumanida – 94,3 %, Sayxunobod tumanida - 89,8 %, Xovos tumanida - 89,6 %, Sirdaryo tumani - 79,4 % va Guliston shahrida - 50,8 %, eng past ko'rsatkichni Boyovut tumani - 37,7 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlikdagi Import (tovar, xizmat)larning, jami Import hajmidagi ulushi, %



2019 yil yanvar - dekabr holatiga hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikdagi import (tovar, xizmat)larning jami importdagi eng ko'p ulushi Xovos tumanida - 100,0 %, Sardoba tumanida - 100,0 %, Yangiyer shaharda - 100,0 %, Guliston tumanida- 100,0 %, Oqoltin tumanida - 100,0 %, Boyovut tumanida - 100,0 %, Guliston shahrida - 99,8 %, Sayxunobod tumanida - 87,3 % va Mirzaobod tumanida - 88,5 %, eng past ko'satkichni Shirin shahrida - 15,0 % ni tashkil etdi.


**2019 yil yanvar – dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik
(biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi**



Hududlar bo'yicha eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Sirdaryo tumanida (1256,2 mlrd. so'm), Guliston shaharda (799,6 mlrd. so'm), Mirzaobod tumanida (288,3 mlrd. so'm), Sardoba tumanida (226,6 mlrd.so'm), Sayxunobod tumanida (216,2 mlrd.so'm) va Boyovut (187,4 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Shirin shaharda (24,5 mlrd.so'm) ushbu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'ldi




2019 yil yanvar-dekabr holatiga jami sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi, %




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat maxsulotidagi eng yuqori ulushi Mirzaobod tumani (100,0 %), Sardoba tumani (86,0 %), Sirdaryo tumani (82,3 %), Guliston shahri (78,9 %), Sayxunobod tumani (71,1 %), Boyovut tumani (68,5 %), Guliston tumani (66,4 %), Xovos tumani (59,2 %), Yangiyer shahri (53,4 %), Oqoltin tumani (43,6 %), va Shirin shahrida (0,9 %) kichik tadbirkorlikning ulushi past bo'lib qolmoqda.

2019 yil yanvar - dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Guliston shahri (909,9 mlrd. so'm), Sirdaryo tumani (465,2 mlrd. so'm), Yangiyer shahrida (242,0 mlrd. so'm), Mirzaobod tumani (240,7 mlrd. so'm), Boyovut tumani (139,9 mlrd. so'm), va Oqoltin tumani (138,5 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keladi.


2019 yil yanvar – dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilishishlari hajmi Guliston shahri (473,2 mlrd.so'm), Sirdaryo tumani (189,7 mlrd.so'm), Yangiyer shahri (95,3 mlrd.so'm), Mirzaobod tumani (113,2 mlrd.so'm) hamda Boyovut (110,0 mlrd.so'm), Oqoltin (87,3 mlrd.so'm) tumanlarida qayd etildi.



**2019 yil yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik
(biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati**




Hududlar bo'yicha ko'proq xizmatlar hajmi Guliston shahri (459,2 mlrd.so'm), Sirdaryo tumani (296,8 mlrd.so'm), Yangiyer shahri (188,9 mlrd.so'm) va Mirzaobod (120,8 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2019 yil IV - chorak yakunlariga ko'ra, yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda 32 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi.

Ulardan sanoat korxonalari - 7 (ishtirok etgan respondentlarning umumiyl sonidan 21,9 %), qurilish - 4 (12,5 %), savdo - 11 (34,3 %), xizmatlar sohasi - 6 (18,8 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi - 4 (12,5 %) tashkil etdi.




2019 yil IV - chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan
yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi




Hududlar kesimida jami kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining ulushi Sirdaryo tumanida-31,3% (10 ta), Guliston shahrida-21,9% (7 ta), Sayxunobod tumanida-9,4% (3 ta), Boyovut tumanida-9,4% (3 ta), Xovos tumanida-6,3% (2 ta), Guliston tumanida-6,3% (2 ta), Oqoltin tumanida-6,3% (2 ta), Sardoba tumanida-3,1% (1 ta), Mirzaobod tumanida-3,1% (1 ta), Shirin shahrida-3,1% (1 ta).

Tarmoq	birlikda
Sanoat	7
Qurilish	4
Savdo	11
Xizmatlar	6
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	4

**2019 yil IV-chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan
yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik
korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda**




**2019 yil IV-chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil
etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining
hududlar bo'yicha taqsimlanishi, %**




Kuzatuv ma`lumlotlari tahlili, qurilish sohasida respondentlarning 75,0 % iqtisodiy vaziyatni – qulay va 25,0 % esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda savdo sohasida – 45,5 % va 36,4 %, xizmatlar sohasida – 16,7 % va 83,3 %, qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 25,0 % va 75,0 %, sanoatda – 71,4 % va 14,3 %ni tashkil qilganini ko`rsatdi.

Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar sanoatda – 14,3 %, savdoda – 18,2 %ni tashkil qildi.

Iqtisodiy vaziyatni baholash 2019 yil IV–chorak uchun, %



**2019 yil IV-choragida yangi tashkil etilgan korxonalarining
yaqin uch oyda iqtisodiy ahvolini baholash, %**

Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqinuch oyda 71,4 % sanoat korxonalari, 81,8 % – savdo, 66,7 % – xizmatlar, 75,0 % – qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi va 75,0 % – qurilish tarmog'ida kutilmoqda.

Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yahshilash uchun ko'rilibotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobjiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

**Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari,
tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo'limi**

Nashruchunmas'ul: B.Mamadaliev

Tel.: (0371) 230-86-16